



O‘TKIR BARGLI SANO (CASSIA ACUTIFOLIA DEL) O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
magistran **Dusmetova Mashhura Sa’dulla qizi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘tkir bargli sano (*Cassia acutifolia* Del.) o‘simligining sistematik o‘rni, morfologik va biologik xususiyatlari, geografik tarqalishi hamda introduksiya va yetishtirish texnologiyasi yoritilgan. Shuningdek, o‘simlikning kimyoviy tarkibi, dorivor xususiyatlari, xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о систематическом положении, морфологических и биологических особенностях растения сенна остролистная (*Cassia acutifolia* Del.), его географическом распространении, интродукции и технологии выращивания. Также рассмотрены химический состав, лечебные свойства растения, его значение в народной и научной медицине.

Annotation. This article provides information on the systematic classification, morphological and biological characteristics, geographical distribution, introduction, and cultivation technology of *Cassia acutifolia* Del. The chemical composition, medicinal properties, and the importance of the plant in traditional and modern medicine are also discussed.

Kalit so‘zlar: O‘tkir bargli sano (*Cassia acutifolia* Del.), smola, sennozid, antraglikozidlar, antrasen unumlari, damlama, yetishtirish.

Ключевые слова: сенна остролистная (*Cassia acutifolia* Del.), смола, сеннозид, антрагликозиды, производные антрацена, настой, выращивание.

Keywords: *Cassia acutifolia* Del., resin, sennoside, anthraglycosides, anthracene derivatives, infusion, cultivation.

Kirish. Uzoq vaqtlar davomida butun dunyo xalqlarining asosiy dorivor vositalari shifobaxsh o‘simliklar xom-ashyosi asosida tayyorlanib kelingan. Shifobaxsh o‘simliklar zaharli emas, yoki kam zaharli, eng asosiysi asorat qoldirmaydi, ular tarkibida biologik faol moddalar ko‘p va inson organizmiga uzoq vaqt davolovchi





ta'sirini o'tkazib turadi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan[4].

Hozirgi kunda 1000 dan ortiq (50-60%) o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Muhtaram! Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli qaroriga muvofiq "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari" asosida tavsiya etilgan o'simliklardan biri sezaljindoshlar oilasiga mansub Sano o'simligidir[1].

O'tkir bargli sano – *Cassia acutifolia* Del. o'simligi dukkakhodoshlar oilasiga mansub bo'lib bo'yi 1 m ga yetadigan yarim buta. Poyasi shoxlangan, pastki qismidagi shoxlari yerda sudralib o'sadi. Bargi juft patli murakkab, 4-8 ta juft bargchalardan tashkil topgan bo'lib, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Gullari shingilga to'plangan. Mevasi - yassi, yapaloq tuxumsimon, ba'zan bir oz qayrilgan, yashil-jigarrang va ko'p urug'li dukkak. Urug'i sariq yoki yashilroq, deyarli to'rtburchaksimon, to'rsimon burushgan, uzunligi 6-7 mm. Iyun oyining oxiridan boshlab, kuzgacha gullaydi. Mevasi sentyabrda boshlab yetiladi.

Sano o'simligi yovvoyi holda Afrikaning cho'l va yarim cho'l viloyatlarida (Sudan, Nubiya va Qizil dengiz bo'yida) hamda Arabistonning janubida uchraydi. Bir yillik o'simlik sifatida O'rta Osiyo va Kavkazda o'stiriladi. *Cassia acutifolia* Del. Iskandariya porti orqali chet elga chiqarilgani uchun u yana Afrika, Misr yoki Iskandariya sanosi deb ham yuritiladi[3].

Sano turlarining vatani Afrikaning cho'l va yarim cho'l mintaqalari, va Arabistonning janubiy hududlari hisoblanadi. Markaziy Osiyo, Qozog'iston va Kavkazda bir yillik dorivor o'simlik sifatida o'stiriladi[4].

Sano surgi sifatida ishlatiladigan va bavoil kasalligida qo'llaniladigan choy - yig'malar tarkibiga ham kiradi[3].

Sano bargidan tayyorlangan damlamasini Ibn Sino podagra, jigar og'rig'i va sariq kasalliklarini davolashda surgi dori sifatida qo'llagan. Tomoq og'riganda va tomoqda shish paydo bo'lganda u sano bargi damlamasiga ituzum mevasi shirasini qo'shib (ba'zan kashnich shirasi va ituzum shirasida sano bargini ivitib tayyorlangan damlama bilan) tomoqni chayishni buyurgan. Xalq tabobatida sano bargi va mevasidan






tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarida, ayniqsa, surunkali qabziyatda surgidori sifatida samarali qo'llaniladi[4].

Sano kserofit o'simlik, yorug'sevar va issiqsevardir. O'simlik namgarchilikni yoqtirmaydi. Sano o'simligi urug'idan ko'payadi. 1000 dona urug' vazni 25–35 g. Unib chiqish qobiliyati 80–95 %, ammo vaqt o'tgan sari unuvchanligi pasayib boradi. Yaxshi pishib yetilmagan urug'lar tez unuvchanligini yo'qotadi. Urug'lar ekilgandan so'ng 6–20 kunda unib chiqadi. Unib chiqqan o'simliklar juda ham sekin o'sadi va rivojlanadi. G'unchalash o'simlik unib chiqqanidan 2,5–3 oydan so'ng kuzatiladi[5].

Tuproq harorati 25-30°C bo'lganda yaxshi rivojlanadi. Sanoni unumdor, mexanik tarkibi o'rtacha bo'lgan tuproqlarda ekish tavsiya qilinadi. Sano ekiladigan maydonlarni kuzda yer haydash oldidan 20-25 tonna organik o'g'it berib 25-28 santimetr chuqurlikda haydab qo'yiladi. Sanoni dukkakli o'simliklar ekilgan maydonlarda ekish tavsiya qilinmaydi. Ekish oldidan bahorda tuproq ikki marta boronalanadi. Aprel oylarining o'rtalarida tuproq harorati 18-20°C bo'lganda urug'lar ekiladi. Ekishdan oldin sanoning urug'i sulfat kislotasida (3:1 nisbatda) 18-20 minut ushlanib, uni suvda yuvib va quritib va sabzavot ekadigan moslamalarda egat oralari 70 santimetr qilib, 2-3 santimetr chuqurlikda urug'lar ekiladi. Bir gektar yerga o'rtacha 8-10 kg urug' sarflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Sano urug'idan ko'payadi. Sanoning urug'lari 12-15 kundan keyin unib chiqadi. O'simlik ekilgandan keyin havo harorati pasayib ketsa, namgarchilik ko'p bo'lsa va qatqaloq bo'lgan maydonlarda ildiz chirish kasalligi bilan zararlanadi va unib chiqishi kechikadi. Maysalar paydo bo'lgandan keyin 6-8 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinib va begona o'tlardan tozalanib yagana qilinadi va sug'oriladi. Poyalar paydo bo'lgandan so'ng 8-10 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinib, o'simlik oralari yumshatiladi, begona o'tlardan tozalanadi va mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi. Vegetatsiya davomida sanoni 6-7 marta sug'oriladi, gektar hisobida 80-90 kg azot, 70 kg fosfor va 50 kg kaliy bilan oziqlantiriladi. Har bir o'g'itlash sug'orishdan oldin amalga oshiriladi[3].

Xulosa qilib aytganda, sano o'simligi ming dardga davo hisoblanadi. Sanodan yuqori hosil yetishtirish uchun erta bahorda tuproqning yuqori qatlamini urug' yaxshi ko'miladigan, normal unib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladigan qilib yumshatish, havo almashinishini yaxshilash, pastki qatlamlardan urug'ga nam kelishini ta'minlash va begona o'tlarni yo'qotishga qaratish kerak bo'ldi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘svuchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qarori.
2. E.T.Berdiev, E.T.Axmedov “Tabiiy dorivor o‘simliklar” Toshkent -2018.
3. “Dorivor o‘simliklarni o‘stirish va yetishtirish” 100 kitob to‘plami Agrobank ATB –Toshkent:”TASVIR” nashriyot uyi, 2021.
4. O‘.P.Pratov, M.M.Nabiyev “O‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonaviy tizimi”, “QITUVCHI” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 2007.
5. O‘.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov ”Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi“ darslik Toshkent-2020.

